



O'rog Said
Afandi
bo'lmoqchiman

Bolalar uchun she'rlar



Toshkent
«O'zbekiston»
2016





UO'K: 821.512.133-1
KBK 84(50)7



Rassom: *R. Vasixanova*

O'roq Saidning qo'lingizdagi to'plamiga tabiat, do'stlik, Vatanga muhabbat haqidagi bolalarga atalgan she'rlari kiritilgan.

She'rlardagi samimiylik, soddalik va teran ma'noni anglatuvchi fikrlar jo'shqinligi Siz aziz bolajonlarda tabiatga bo'lgan mehrni, do'stga sadoqatni va tug'ilib o'sgan qishlog'iga bo'lgan mehrni yana ham oshirishiga ishonamiz.

Mazkur she'riy guldasta qalbingizdan munosib o'rin egallaydi degan umid-damiz.

ISBN 978-9943-28-714-3

© O'roq Said, 2016
© «O'zbekiston» NMIU, 2016





SHOIR ILHOMI

She'r yozmoq istagida,
Tunni tongga uladim.
Niyat ko'p dil tagida,
Yurak dardin tingladim.
Bir ko'nglim deydi: «Shoir,
Buncha zahmat chekasan?
Qancha qog'ozni yirtding,
Yozolmasang, netasan?
Goho xunobing oshib,
Bo'lding gohi dil pora.
Axir boshqa kasblar ko'p,
Sen-chi, tinmay ovora!»
Bir ko'nglim deydi: «Shoir,
Yozaver dil dostonin.
Qancha zahmat chekilsa,
Yashnar ko'ngil osmoni.
Yoz, bolalar she'ringdan
Gullar kabi yashnasin.
Yoki buloq suvidek,
Bossin yurak tashnasin...»
Qalbim, kuyla, ilhom ber!
Bolalardan qarzim bor.
Har bir qalbga yo'l ochib,
Kuylayin, mayli, ming bor!



HO‘KIZBURUN

(Hisor taassurotlaridan)

Qoyalarning naq belida
Bir xarsang bor: ho‘kizbosh.
Uni biram o‘xshatibdi,
Tabiat – haykaltarosh.
«Ho‘kizburun» deb atashar,
Ajib haykal bu toshni.
Pastda esa majnuntollar,
Tebranib yuvar boshni.
Bir ko‘rishda lol qolasiz,
Tabiatning ishiga.
Minglab zarra: Hasan-Husan,
Tovlanadi qoshida.
«Ho‘kizburun» sirli boqar
Kamalak darvozadan.
Do‘stlar, siz ham bir bor kelib,
Zavq olingiz o‘zidan!

KO‘PKARI

O‘rtada katta maydon,
Sof bedovlar shunda jam,
Tomoshaga shaylandim,
Toyimni minib men ham.
Bobom bunda bakovul,
Ko‘krak ochiq, yelvagay.
Uloqni yerga tashlab:
«Qoch», – der, – tezroq, bolakay!»
Otlar botib teriga,
G‘alabaga intilar.
Tuyoqdan chaqin chaqib,
Kenglik sari yuz burar.
Chopqir otlar shamoldek,
U yon-bu yondan o‘tar.





To'rt poychani qirq kishi
O'ziga qarab tortar!
Payt poylab Qorabayir
Shamoldek yelib ketar.
Uni mingan pahlavon
Uloqni ilib ketar...





O'ZGACHADIR TOG'LAR BAHORI

O'zgachadir tog'lar bahori:
Ta'rifi topilmas hech so'z.
Oppoq marmar cho'qqilar qori,
Jilg'alardan oqar Turnako'z.
Qor bag'rida unar boychechak,
Yulduzlarga sirli kulgandek.
Qizg'aldoqlar – tog' kelinchagi,
Qarasangiz, ko'zni olgudek.
Pista, bodom, lola, maysalar,
Jonlanadi tebranib yelda.
Zarg'aldog'-u kakku, to'rg'aylar
Sarmastlikdan kuylar ming tilda,
Ravochlarni sindirib kars-kurs
Yosh-u qari havas-la chaynar.
Uloq-qo'zi tog'lar qo'ynidan,
Tushib kelib, uygacha o'ynar.
Daraxtlar ham yaylovlar baxmal
Ming xil giyoh – tog'lar libosi.
Shaydo bo'lib kezsang dimog'ing,
Qitiqlaydi murch, zira isi.
Navro'zida qaynar sumalak,
Qozonlarda damlanar palov,
Qizaloqlar go'yo kapalak.
Sho'x o'yinga tor kelar yaylov,
Chanqovuzning kuyi o'tovdan
Taraladi to'rt taraf tinmay,
Unga jo'rdir yaqin cho'qqidan
Nola qilar sehrlil bir nay.
Pastda esa gala chavandoz,
Uchqur otda chopar ko'pkari.
Sovrindorga yozib poyandoz
Qutlashlar bahorni bari...
O'zgachadir tog'lar bahori,
Ta'rifi topilmas hech so'z.
So'zlarimga gar shubhang bo'lsa,
Do'stim, bo'lg'in sen ham yuzma-yuz.





BESHIK

Qunduzga daryo beshik,
Arslonga-chi, o‘rmoni.
Oqqushlarga moviy ko‘l,
Oy, yulduzga osmoni.
Burgutlarga balandlik,
Yuksak tog‘ning qoyasi.
Fanni quchgan olimga
Alifboning ziyosi.
Zamin tog‘- u dengizni
Ardoqlaydi ko‘ksida.
Tog‘da o‘hu ulg‘ayar,
Beshik bo‘lgani shu-da!
Qo‘shiqqa xonanda-yu
Yana tanburning kuyi.
Insonga yurti beshik,
Ilk bor ko‘z ochgan uyi...
«Kim beshigin tark etsa,
Umri qayg‘uda, bolam.
Yurting nonday aziz tut»
Deydilar har gal bobom!

TOG‘ LOLASI

– Tog‘ning dilbar lolasi,
Toshning yoqut bolasi.
Bo‘yinbog‘imga o‘xshar,
Orazing zuvalasi!
Nega seni e‘zozlar
Ko‘zi tushgan har odam?
Qiyosi yo‘q husningda
Aytgin qanday sirlar jam?
– Bahorda yulduz kabi
Ming tovlanib yonaman.
Quyoshning otashidan,
Nur olib tovlanaman!



Tinchlik, do‘stlik guliman,
Hur hayotda men otash.
Zamindagi go‘zallik
Bilsang, qalbinga tutash!

YANGI YIL

Kumush kabi dalalar,
Qor zaminni allalar.
Shod va quvnoq bolalar,
Yana keldi YANGI YIL!

Archalarda o‘yinchoq,
Yulduz, ayig‘-u toychoq.
Qorbobo bizga mushtoq,
Yana keldi YANGI YIL!

Qorqiz qizchasi bilan,
Shirmoy kulchasi bilan,
Qirov gulchasi bilan,
Yana keldi YANGI YIL!

YANGI YILda yangi baxt
Quchib zafar oshamiz.
Jahonga tinchlik degan
Kuy-qo‘shiq ulashamiz!

TOG‘

Yastanadi archazor,
Cheki yo‘q, poyoni yo‘q.
Qarayman takror-takror,
Ko‘z uzish imkoni yo‘q!

Billur buloqlarini,
Sharbat desam, hatto oz.
Yashil o‘tloqlarini,
Baxmal desam, bo‘lar soz!





Kun tegmas daralari,
Saratonda saqlar muz.
O‘ynab esgan shabboda,
Junjiktirar o‘sha kez!

Qo‘y-qo‘zilar yaylovda,
Tizilishgan turnadek.
Uchqur otlar boylovda,
Sharpadan olar hadik.

Zarg‘aldoqlar xonishi,
Qalblarga berar orom.
Nayning yonib kuylashi,
Sehri etar beorom!

Cho‘qqida sakrar olqor,
Quyosh asta mo‘ralar.
Pastda bahor, tepa qor,
Kelib ko‘ring, jo‘ralar!

FUTBOL O‘YINI

Hovlimizda boshlandi,
Futbol o‘yini bir kun,
Darvozabon men bo‘ldim,
Yayrar bo‘ldik tun-u kun.

Xo‘rozvoy urdi to‘pni,
Qanotini keng yoyib.
Kuchuk qaytarmoq bo‘lib,
Umbaloq oshdi toyib.

Yana shu payt qo‘qqisdan
Xo‘roz o‘tdi hujumga.
Uzoqdan uchib kelib,
Shar-to‘pni tepdi menga.





Darvozaga yetmasdan,
Shar yorildi paqillab,
Xo‘rozvoy cho‘chib ketib,
«Quv-quvv!» dedi «pirillab».

KAMALAK

– Yomg‘ir yog‘ib tinganda,
To‘rg‘ay sho‘x sayrab xandon,
Ko‘kdan zarra enganda,
Lol qolib jumla jahon.
Ko‘rinar go‘yo tovus,
Ulkan qanotin yoyib,
Ostida qirlar cheksiz,
Boqar zar libos kiyib.
Yerdagi turli maysa,
Misoli oltin pati.
Quyosh nurini yoysa,
Tovlanar yoy-qanoti!





Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi <https://kitobxon.com/oz/asar/4571> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси <https://kitobxon.com/uz/asar/4571> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/4571>